

IBROHIM ADHAM–TASAVVUFDAGI ZOHIDLIK TIMSOLI

Zaripova Dilfuza Baxtiyorovna

Ichki ishlar vazirligi

Buxoro akademik litseyi

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada tasavvuf vakillaridan biri–Ibrohim Adhamning hayoti, ruhiy tajribasi, tasavvuf tarixidagi o'rni va uning islomiy falsafa rivojiga qo'shgan hissasi tahlil etiladi. Uning zohidlik yo'li, taqvo haqidagi qarashlari, shuningdek, so'fiylikdagi ma'naviy merosi va Huvaydo ijodidagi badiiy talqini haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Tasavvuf, zohidlik, taqvo, islom falsafasi, ruhiy kamolot, zohidlik.

Islom tarixida tasavvuf harakati zohidlik, ruhiy poklanish va Ollohga yaqinlikni o'zining asosiy tamoyili sifatida qaragan. Bu yo'nalishda eng mashhur avliyolardan biri Ibrohim Adham hisoblanadi. Uning hayoti va qarashlari nafaqat diniy, balki falsafiy va ma'naviy yondashuvlar uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Ibrohim ibn Adham hijriy II asr boshlarida, taxminan 718-yilda Balx (hozirgi Afg'oniston) shahrida tug'ilgan. U boy va nufuzli oilada tug'ilib, yoshligida saroy hayotining barcha ne'matlaridan bahramand bo'lgan. Biroq bir qator ruhiy uyg'onishlarga olib kelgan voqealar natijasida u hokimiyat va boylikdan voz kechadi.

Manbalarda aytilishicha, Ibrohim bir kecha saroy tomida yotganida, g'ayritabiiy ovoz eshitadi: "Ey Ibrohim, sen bu dunyoga xizmat qilish uchun emas, Allohga ibodat qilish uchun kelding!" Bu voqea uning hayotini tubdan o'zgartiradi. U taxtni tark etib, zohidlik yo'liga kiradi.

Ibrohim ibn Adham tasavvufda "zuhd"— dunyo ne'matlaridan voz kechish orqali ruhiy poklikka erishish g'oyasini targ'ib qilgan. Uning fikricha, chinakam Alloh muhabbatiga erishish uchun inson dunyoviy istaklardan tozalangan bo'lishi

kerak. U dehqonchilik yoki kulollik kabi mehnat orqali kun ko'rgan va o'z mehnatidan boshqa hech narsani qabul qilmagan.

Ibrohimning shogirdlari orasida mashhur so'fiy Shaqiq al-Balxiy bo'lib, u orqali bu ta'limot keyingi avlodlarga uzatilgan. Fariduddin Attor, Abu Nu'aym al-Isfahaniy va boshqa tarixiy manbalar uning hayotini chuqur yoritgan.

Ibrohimning asosiy ta'limotlari quyidagilarga asoslangan:

- **Taqvo** – har bir harakatda Allohning roziligini izlash;
- **Tavakkul** – to'liq ishonch bilan Allohga suyanish;
- **Zuhd** – dunyo havasidan voz kechish;
- **Xolisan lillah** – har qanday amalda faqat Alloh rizoligini ko'zlash.

Uning so'zlariga ko'ra: “Allohnin chin dildan sevgan banda, dunyoni yomon ko'rmasdan turib, Haqqa yetisha olmaydi.” Ibrohim ibn Adham 782-yilda vafot etgan. Uning qabri haqida turli rivoyatlar mavjud, lekin mashhur qarashga ko'ra, u Suriyaning Jableh shahrida dafn etilgan. Uning nomi bilan atalgan madrasalar, maqbaralar va tariqatlar mavjud bo'lib, Adhamiyya tariqati uning nomiga bog'lanadi.

XIV asrning oxiri va XV asrning I yarmi adabiyotining yirik namoyandaligidan biri Xoja Ismat – Xoja Faxriddin Ismatulloh binni Mas'ud Buxoriy tarjimayi holi va ijodiy faoliyati haqida tarixiy-adabiy manbalarda u hayot bo'lgan davrdanoq ijobiy fikrlar va qimmatli ma'lumotlar bayon etila boshlangan edi. Bu kabi ma'lumotlar S.Bobokalonovning “Xoja Ismat va turkiygo'y zamondoshlari she'riyatining janrlari, uslubi, badiiyati” nomli dissertatsiyasida¹ berilgan.

Xoja Ismat Buxoriyning 8 000 baytli devoni va turkiy tilda yozilgan “Ibrohim Adham” nomli 1035 baytli asari bizgacha etib kelgan. Ismat Buxoriyning devoni 19 qo'lyozma nusxada Toshkent, Buxoro, Dushanbe, Sank-Peterburg, Filadelfiya (AQSH), London, Kalkutta (Hindiston) saqlanadi. Dissertatsiyada devon nusxalari haqida ham fikr yuritilgan. Ayniqsa, “Ibrohim Adham” qissasi haqidagi fikrlar,

¹Бобокалонов.С. Хожа Исмаи ва туркигуи замондошлари шеъриятининг жанрлари, услуби, бадииати – Бухоро: 2012.

devonning qaysi nusxalarida berilgani, qaysi yozuvda ko'chirilgani, qanday holatda ekanligi haqida ma'lumotlar ilmiy jihatdan muhim.

O'zbek mumtoz adabiyotida tasavvuf va so'fiylik g'oyalari muhim o'rin tutgan. Ayniqsa, XVIII asrda yashab ijod qilgan Xojanazar Huvaydo o'zining chuqur tasavvufiy mazmundagi asarlari bilan ajralib turadi. Uning she'riyatida ko'plab tarixiy va afsonaviy shaxslar obrazlari orqali ma'naviy yuksaklik targ'ib qilinadi. Shunday obrazlardan biri bu – Ibrohim Adham obrazidir.

Ibrohim Adham tarixiy shaxs bo'lib, u shohliklikdan voz kechib, ruhiy poklanish yo'liga kirganligi bilan mashhur. U tasavvuf adabiyotida tarkidunyo, sabr-toqat, qanoat va ibodat ramzi sifatida tasvirlanadi. Shu obrazni Huvaydo o'z asarlarida chuqur falsafiy va axloqiy ma'no bilan boyitadi.

Huvaydo g'azallarida Ibrohim Adham ko'pincha dunyo ne'matlaridan voz kechgan, ilohiy ishqni tanlagan zot sifatida tasvirlanadi. Masalan, uning quyidagi misralarida:

“Izzati dunyo bila hargiz kishi topmas murod,
Xorlikni pesha aylab, misli Adham bo'lmasa”.

[Huvaydo. Devon. –B.205]

Inson dunyo sha'ni (izzati, martabasi, mol-u dunyosi) bilan hech qachon chinakam murodiga erisha olmaydi. Bu yerda “izzati dunyo” – dunyoviy boylik, mansab, shon-shuhrat kabi o'tkinchi narsalarni anglatadi. Shoir bu misrada dunyo boyligining o'tkinchiligini, uning inson qalbini haqiqiy baxt va ma'naviy yuksaklikka yetkaza olmasligini ta'kidlaydi. Agar kishi xorlikni (ya'ni, kamtarlikni, dunyo ne'matlaridan voz kechishni) kasb qilib, Adham kabi bo'lmasa – u holda yuqoridagi holat (ya'ni, murodga yetmaslik) davom etadi. Bu yerda “Adham” – Ibrohim Adham nazarda tutilgan. U saroy va boylikdan voz kechib, faqirona, taqvodor hayot kechirgan. Shoir uning misolida chinakam ma'naviy yuksaklikka erishgan inson obrazini ko'rsatadi. “Pesha aylab” iborasi – doimiy kasb, hayot tarzi degani. Demak, inson chinakam baxtga faqat dunyo havasidan voz kechib, kamtar va halol hayot tarzini tanlaganida erishadi. Bu bayt insonni dunyo havasidan voz kechishga, kamtarlikka, ma'naviy poklikka va sof qalb bilan yashashga undaydi.

Shoirning fikricha, chinakam murod (hayotiy baxt, ma'naviy kamolot) na boylikda, na mansabda – balki ruhiy poklik va xorlikni (kamtarlikni) o'ziga kasb etishda, Adham kabi hayot kechirishda bo'ladi.

“Dunyodin kechdim degondin qocha ko'r,
San oni IbrohimAdham dema”.

[Huvaydo. Devon. –B.205]

Shoir bu yerda yolg'on zuhd (soxta taqvo)ni fosh qilmoqda. O'zini dunyodan kechgan qilib ko'rsatadigan, lekin aslida dunyo ishtahasidan voz kechmagan kishilarga ishora qilinmoqda. Ya'ni bunday kimsalar ko'pincha riyo (ko'zbo'yamachilik) bilan shug'ullanadilar – tilida dunyodan kechish, amalda esa nafsga quloq tutishdir. Ibrohim ibn Adham tariqat va tasavvuf tarixida muhim shaxs – u haqiqiy zuhd-u taqvo yo'lini tutgan, saltanatni tark etib, Alloh yo'lida yashagan. Shoir aytmoqchi: dunyodan chin yurakdan kechgan odam Adham bo'ladi, lekin dunyodan kechganlikni da'vo qilib, amalda bunga zid ish tutgan odamga bu ulug' nomni berish insofdan emas. Bu baytda riyo (soxta dindorlik), ko'zbo'yamachilik tanqid qilinadi. Shoir insonni doimo hushyor bo'lishga, har kimning da'vosiga ishonmaslikka, amallar orqali baho berishga da'vat qiladi. Shoir dunyoviy boylikdan voz kechish, ilohiy ishqqa intilishni targ'ib qiladi. Ibrohim Adham obrazi orqali u o'quvchiga ruhiy komillikka yetishish yo'lini ko'rsatadi.

Huvaydoning bu obrazni tanlashi bejiz emas. Ibrohim Adham – so'fiylikdagi “fani filloh” (Allohdan yo'q bo'lish) holatini boshidan o'tkazgan shaxs sifatida ko'riladi. Shoir bu obraz orqali nafaqat axloqiy pand-nasihat beradi, balki o'zining so'fiyona dunyoqarashini ham ifodalaydi. Obrazning badiiy yuksalishi uni odatiy tarixiy shaxsdan falsafiy timsol darajasiga olib chiqadi. Shoirning she'riy tili, mazmun va shakl uyg'unligi, bu obrazni unutilmas va ibratli qila olgan.

Xojanazar Huvaydo ijodida Ibrohim Adham obrazi – bu nafaqat tarixiy-so'fiy shaxsning badiiy talqini, balki shoirning axloqiy-falsafiy qarashlarining in'ikosidir. Bu obraz orqali Huvaydo o'quvchini ruhiy tozalanish, ilohiy ishq va tarkidunyo yo'lga da'vat etadi. Maqolada tahlil etilganidek, Ibrohim Adham obrazi Huvaydo she'riyatining markaziy axloqiy timsollaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo'ldosheva S. Badiiy-biografik qissalar poetikasi. (Qissasi Ibrohim Adham", Qissasi Sayid Nasimiy", "Qissayi Mashrab" asarlari asosida)//diss. 2012.
2. Бертельс Е. Э. Суфизм и суфийская литература. Избранные труды. – Москва: Изд-во наука, 1965.
3. Yo'ldosheva S. Shohning faqirlik falsafasi. // "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", 1998-yil, 25-dekabr.
4. Xo'janazar Huvaydo. Rohati dil. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994.
5. Abdullayev A. Tasavvuf va uning namoyandalari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.